| | |
|---|---|
| **"TASDIQLAYMAN"** | **"TASDIQLAYMAN"** |
| **O'zbekiston respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i, y.f.d., professor** | **MChJ "SMART TEXNOLOGY SISTEMS" direktori** |
| **M.X.Rustambayev** | **A.A.Sattorov** |
| 2023 yil "21" 06 | 2023 yil "21" 06 |

**O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti "Qo'riqlashni muhandislik-texnik ta'minoti" kafedrasi hamda "SMART TEXNOLOGY SISTEMS" Ma'suliyati cheklangan jamiyat o'rtasida o'zora hamkorlik qilish to'g'risida**

# MEMORANDUM

Maskur memorandum bir tarafdan O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti "Qo'riqlashni muhandislik-texnik ta'minoti" kafedrasi (bundan buyon *Kafedra* deb yuritiladi) va ikkinchi tarafdan "SMART TEXNOLOGY SISTEMS" Ma'suliyati cheklangan jamiyat (bundan buyon *MChJ* deb yuritiladi) bilan tuzildi.

## 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'1im to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq Kafedra hamda MChJ hamkorlikda o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash va ularning malakalalarini oshirish to'g'risida ushbu memorandumni tuzdilar.

1.2. Memorandumning maqsadi jahon ta'1im standàrtlarigi javob beradigan, murakkab sharoitlarda xavfsizlikni ta'minlash, qo'riqlash faoliyati sohasida xizmat qilayotgan xodimlarning malakasini oshirish borasida, shuningdek, amaliy ko'nikmalarini yanada oshirish, tajriba loyihalarini hamkorlikda bajarish bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, malaka oshirish, tajriba almashish, uslubiy yordam ko'rsatish, masofaviy ta'limni joriy qilish, ta'1im amaliyotida ilmiy-texnikaviy va intellektual imkoniyatlarni birlashtirishdan iborat.

## 2.TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

2.1. Kafedra tomonidan:

2.1.1. Zamon talablaridan kelib chiqqan holda yangi o'quv qo'llanma1ar, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar, o'quv dasturlar va darsliklarni hamkorlikda tayyorlashga MChJ xodimlarini jalb etish.

KIR. RAQAMI 3880
«10» 07 2023 YIL
2 VARAQDA
VARAQDA

2.1.2. Amaliy mashg'ulotlami o'tkazishda, hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashda qo'riqlash faoliyatida foydalaniladigan videokuzatuv tizimlarini nazariy va amaliy jihatidan mahoratini oshirish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha tajriba almashish maqsadida hamkorlikni tashkil etish;

2.1.3. MChJning yetakchi ilmiy xodimlarini Kafedraga xizmat safarini tashkil etish.

2.1.4. Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarga oid dolzarb muammolarga bag'ishlab o'tkaziladigan nazariy va amaliy tadbirlar (seminar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari va h.k.)ga MChJning mutaxasislarini jalb qilish.

## 3. MEMORANDUMNI BEKOR QILISH

3.1. Tomonlarning o'zaro roziligi bilan.

3.2. Memorandum shartlari bajarilmagan taqdirda taraflardan birining tashabbusi bilan.

3.3. Amaldagi qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa holatlarda.

## 4. YAKUNIY QOIDALAR

4.1. Memorandumda taraflarning o'zaro hisob-kitoblari ko'zda tutilmaydi.

4.2. Memorandum imzolangan kundan boshlab amal qiladi.

4.3. Ushbu Memorandum tomonlarning zimmasiga hech qanday yuridik yoki moliyaviy majburiyatlarni yuklamaydi.

4.4. Ushbu Memorandum yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar o'zaro kelishuv asosida hal etiladi.

## 5.TARAFLARNING MANZILLARI:

Toshkent viloyati, Zanigiota tumani,
Chorsu qo'rg'oni, 1/1
Tel.: (871)230-32-71.
Faks: (871)230-32-50.
e-mail: jhu@umail.uz
Indeks: 100109

Toshkent sh, Shayhontoxur t-ni,
Sebzor dahasi, m. 17/18, 34-uy, 265 x.
Tel.: 712460224
Faks: 712460227
e-mail: www.nuu.uz
Indeks: 100174

**Qo'riqlashni muhandislik-texnik ta'minoti kafedrasi boshlig'i, t.f.f.d. (PhD), dotsent**

**I.X.Kuldashev**

O'ZB. RES. JXU
HUQUQIY EKSPERTIZADAN
O'TKAZILDI
«___»__________20___y.

**MChJ "SMART TEXNOLOGY SISTEMS" yurist- konsultanti**

**S.M. Rustamiy**